

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

«Hindiy tili tarixi»

tanlov fanidan

Ma'ruza matni

Tuzuvchi: dots. X.B.Begizova

Taqrizchi: f.f.n. S.S. Nurmatov

Toshkent 2015

1 – Ma’ruza

Kirish

Reja:

1. Panini va Chandr yaratgan grammatikalar xususida
2. Undistralar – Panini va Chandr yaratgan grammatikalarga bitilgan ilovalar
3. Sharhlovchi adabiyotlarning asosiy vazifasi

Tayanch iboralar:

Sanskrit, prakrit, pratishakxya, fonetik traktat, tovushlar, unlilar, undoshlar, upadisutralar, sharhlovchi adabiyotlar

«Grammatikalar, upadisutralar, sharhlar»

Hindistonda tilshunoslik an’analari eramizdan avvalgi 1 – mingyillikning 1 – yarmidan to shu kunga qadar shakllanib kelmoqda. Bu an’ana avvalo, avloddan avlodga og’zaki yetkazib kelinayotgan sanskritda yozilgan matnlarni turli g’alizlikdan saqlash ehtiyoji orqasida paydo bo’lgan.

Tilshunoslikning eng birinchi bosqichi pratishakxyalar – fonetik traktatlar bilan xarakterlanadi. Ular tarqoq holdagi grammatik kuzatishlarni o’z ichiga olgan bo’lib, nutqni tovushlar klassifikatsiyasi bilan ahamiyatlidir.

Tilshunoslik an’analarining keyingi davrlari sanskritni targ’ib etuvchi matnlarning quyidagi asosiy turlari bilan belgilanadi:

1. Grammatika

Ulardan eng asosiysi Paninining «Sakkiz kitobi»dir (eramizdan avvalgi 5-asr). Chandra (5-asr) va Jaynendrnig (7-asr) asarlarini ham tilga olish zarur. Bu davr grammatikalari – taxminan 4 ming qoida (*su:tra*) lardan iborat, nihoyatda izoh talab, chigal tushuntirishlardan tarkib topgan.

Bu grammatika uchun asosiy material bo’lib, ma’nolari ko’rsatilgan negizlarning to’liq ro’yxati, ot, ravish, ko’makchi so’zlar va affikslarni o’z ichiga olgan 200 ta ro’yxat xizmat qilgan.

Bu grammatikaning vazifasi materialga tayanib, sanskritning morfonologik, morfologik, kamida sintaktik sathini yaratishdir.

Buning uchun yasama morfemalar sistemasi – apivandxa qo’llaniladi. Ular odatda bir morfemali bo’lib, tabiiy morfemalar (negiz va affikslar)ga qo’shiladi. Quyidagi atamalar ishlab chiqildi: *dha:tu* – «negiz», *sama:sa* – «kompozita», *pratipadika* «ot negiz», *pratyaya* «postfiks», *pada* «o’zgaruvchi so’zning shakli», *avyaya* «o’zgarmas» bunga – ravishdosh, ravish, predloglar, infinitiv va hokazolar kiradi.

II. Panini va Chandra grammatikalariga «Upadisutra»lar ilova qilingan. Upadisutralar - o’lik suffikslar bilan yasalgan ismlarning ro’yxati. O’z tarkibiga 1,5 ming lug’aviy birlikni olgan.

III. **Sharhlar** – ular asosan «Sakkiz kitob»ga kirgan matnlar uchun yozilgan. Ulardan muhimlari: Katyayananing «Varrtika» («To‘ldirish»lar) kitobi (eramizdan avvalgi 3-asr); Patantalining «Mahabhasya» («Buyuk sharh») (eramizdan avvalgi 2-asr); Vamani va Jaudityaning «Kacika» (7-asr); Nageshaning «Uddyota» (18-asr) asarlaridir.

Bu asarlarning 1-vazifasi sutralarni misollar bilan ta’minlash, berilgan qoidalarni izohlash. Yo‘l-yo‘lakay ba’zi umumiy tilshunoslikka oid muammolar ham ko‘rib chiqiladi. Grammatikada mavjud bo‘lmagan tushunchalar kiritilgan. Bular – *adhikara* «operator havslari», *paribhasa* «metaqoida». So‘zlarning so‘z turkumlari bo‘yicha klassifikatsiyasi berilgan. Bular – ot, fe‘l, pristavka – predlog, ko‘makchi.

Shu yerda Nageshaning umumlashtiruvchi asarlari keltirilgan, jumladan *Paribhasenducekhara* (metaqoidalar to‘plami) berilgan.

Nageshining maqsadlari sanskritni emas, tavsiflashning grammatik jihatidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.Azizov Tilshunoslikka kirish, T.,1995
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, T., 2002 yil
3. A.Berezen, Istoriya lingvisticheskix ucheniy, M., 1989
4. T.Ya. Yelizarenkova, Yazqk rali, M.,1967
5. O.S.Axmanova, Slovar lingvisticheskix terminov, M.,1956

Internet saytlari:

- 1.www.hindibhasha.gov.in
- 2.www.bharatdarshan.co.uz
- 3.www.literateworld.com
- 4.www.ebazm.com
- 5.www.hindi,indya.com

Mustaqil ta’lim uchun savollar:

- 1.Amarsingx yaratgan lug‘atni ta’riflang.
- 2.O‘quv qo‘llanmalari qaysi asosda yaratilgan?
- 3.Upadisutralar- nima?
4. Sharxlovchi adabiyotlar nima maqsadda yozilgan?

Amaliy mashg‘ulot uchun savollar:

1. Tilshunoslik bilimlari asosan qanday asarlarda o‘z ifodasini topgan?
2. Panini va Chandrning grammatikalari haqida so‘zlab bering.
3. Upadisutralar – nima?
4. Sharhlovchi adabiyotlar nima maqsadda yozilgan?

2 – Ma’ruza

Zamonaviy tilga oid bilimlar qadimgi tilshunoslik maktablari bilan aloqadorligi. Uning hozirgi va o‘tmish bilan aloqador tomonlari

Reja:

1. Lug‘atlarning asosiy belgilari.
2. Amarsingx yaratgan «Namalinganucasana» lugatining axamiyati.
3. O‘quv qo‘llanmalarining asosiy bo‘limlari.

Tayanch iboralar:

«Oliy qatlam», sutralar, atokli otlar, turdosh otlar, arxaizm, ravish, kumakchi so‘z, sinonimlar, omonimlar, kup ma’noli so‘zlar, tilning jinsi

Lug‘atlar vaznga solingan xolda tuzilgan. Ular xam grammatikalar kabi yod olish uchun yaratilgan. Ularning tarkibida 7 mingdan 14 minggaacha so‘z bulgan. So‘zlar 2 guruxga oid:

a) otlar – atokli otlar. Bular xudolarning, epos kaxramonlari, toponimlarning nomlari. Turdosh otlar – predmet nomini bildirgan otlar, mavxum otlar, sifatlar. Bular bir bulib otlarning asosiy lugaviy boyligini tashkil etadi. So‘zlarning kuchma ma’nolari, arxaizmlar, ba’zi kasb-xunar bilan boglik so‘zlar lugatdan urin olmagan.

b) ravish va kumakchi so‘zlarning tulik ruyxati sharx bilan berilgan.

Amarasingxning Namalinganucasana («Otlar va ularning grammatik jinsini urgatishlar») lugati (5-asr) 3 ta kitobga bulinadi:

1- kitobda sinonimlar tuplangan. Uning «Samolar» va «Duzax» boblarida «oliy» qatlam xudolar, koinot, borlik, zamon, makon, ilm, san’at bilan boglik so‘zlar, shuningdek, «yerosti» va «suv» bilan boglik so‘zlar joy olgan.

2 – kitob yerdagi xayotga bagishlangan. Uning «Yer», «Shaxar», «Toglar», «Usimliklar», «Xayvonlar», «Odam» kabi bulimlari bor. 4 bulim xind jamiyatining tabakalari.

3 – kitob «Majmua» deb atalib, 6 bobdan iborat. Boblarning nomlari «Sifatlar» (Ular jonli predmetlarning nomlarini aniklab keladi – 1bob), 2 – bobda jonsiz predmetlarning belgilarini bildiruvchi sifatlar, 3 – bobda umumiy tushunchalar, 4 – bobda oxirida kelgan undoshlarning alifbo tartibida joylashgan kup ma’noli so‘zlar va omonimlar, 5 – bobda uzgarmas so‘zlar, 6-bobda yasama otlarning jinsini aniklash koidalari berilgan.

Xalayudxa va Xemachandr lugatlari xudi shu tartibda tuzilgan. (12 -asr)

O‘quv qo‘llanmalari

O‘quv qo‘llanmalari asosan Paninining asariga tayanib yaratilgan. Ularning eng yaxshisi – «Bxatto jidiksitning Siddhanta kaumudi» - «Tamoyillar taralayotgan oy yogdusi» (17-asr) deb ataladi. Vopadevaning grammatikasi xam shular sirasiga kiradi (14-asr). U Paninining «Sakkiz kitobi»dan kura soddarok yaratilgan.

Sanskritga doir asarlarga prakritlar haqidagi asarlar kiradi. Chunki prakritlar usha davr olimlari tomonidan sanskritning uslubiy kurinishlaridan biri deb karalgan. Prakritlar barcha

til satxlarida sanskritcha etalondan chekinishlar majmui deb tavsiflanadi. Prakritga doir grammatikalardagi sutralarida (avtor) Vararuchi, Xemchandrlar sanskritga fonema, suffikslar, kushimchalar, negizlar, uzaklar va kumakchi so'zlarning sanskritdagi xuddi shu til birliklari bilan urin olishi ketma-ket yozilgan.

Tavsiflashdan yaxshi kurinadiki, prakrit bir til tizimi deb kursatilmagan. Prakrit grammatikasi sanskrit grammatikasidagi 4000 tadan farkli ularok 400 ta sutrani uz ichiga olgan. Prakrit glossariylari (decinamamala) tarkibiga fakat koidaga kura yasalgan so'zlar kiritilgan.

6-7 asrlardan fonetika, sanskrit grammatikasining ayrim masalalariga doir ishlar, mumtoz adiblarning tildagi aloxida xususiyatlariga bagishlangan asarlar, arxaizm lugatlari yaratila boshlandi.

Pali tili sanskritga uxshash xolda tavsiflanadi, ammo Kachchayana (asrimizning boshi), Monana (12-asr), Aggavans (12-asr) lar yaratgan grammatikalar ancha past saviyaga ega. Abhidhanappadipika lugati (11-asr) esa Amarsingx lugatiga juda uxshaydi.

Asrimizning boshlaridan vayyakaran, nyaya va mimansa falsafiy maktablarida semantika masalalari – signifikat belgilari, ba'zi so'zlarning ma'nosi Bilan xudi shu so'zlardan tuzilgan gap bildirgan ma'no urtasidagi mutanosiblik, psixolingvistikaning ba'zi masalalari ketma-ket ishlanib chikildi.

Xind tilshunoslik an'analari Osiyoning juda kup tilshunoslik an'alarining shakllanishi va rivojiga samarali ta'sir kursatdi va albatta, xind-evropashunosligining tugilishiga zamin yaratdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Azizov Tilshunoslikka kirish, T.,1995
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T., 2002 yil
3. А.Березен, История лингвистических учений, М., 1989
4. Т.Я. Елизаренкова, Язык пали, М.,1967
5. О.С.Ахманова, Словарь лингвистических терминов, М.,1956

Internet saytlari:

1. www.hindibhasha.gov.in
2. www.bharatdarshan.co.uz
3. www.literateworld.com
4. www.ebazm.com
5. www.hindi,indya.com

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Lugatlar kanday tuzilgan?
2. Ularning tarkibiga qaysi so'zlar kirgan?
3. Amarsingx yaratgan lugatni ta'riflang.
4. O'quv qo'llanmalari qaysi asosda yaratilgan?

3- ma'ruza

Hind tilshunosligiga oid qadimgi manbalar va ularning mohiyati

Reja:

1. J.Bimz grammatikasi tartibi.
2. «Kirish» qismidagi til masalalari.
3. «Fonetika» bobbi haqida.

Tayanch iboralar:

Oriy tillari, asos - til, braxman, veda, sanskrit, fonetika, uzak, negiz, morfologik sistema, urtaxind tillari, yangixind tillari.

O'tgan asr 70-yillarida ingliz olimi Jon Bimzning «Xozirgi zamon oriy tillarning kiyosiy grammatikasi» deb nomlangan 3 tomli kitobi Chop etilgan edi. Tilshunoslikka oid bilimlar soxibi bulgan muallif kup yillar Xindistonda inglizlar ma'muriyati idorasida ishlagan bulib, kup xind tillarini bilardi. U juda kup tadvikot ishlarini olib borgandi. U usha paytgacha mavjud bulgan yangixind tillari buyicha yozilgan grammatikalarni tuplagandi.

Bimz grammatikasida 7 yangixind tillari buyicha material mavjud: xindiy, panjobiy, sindxiy, gujratiy, maratxiy, oriya, bangoliy. Bulardan tashkari nepali, sigan, rajastxaniy tillari bilan boglik til faktlari keltirilgan. Yirik tillardan – assam va singal buyicha ma'lumotlar yuk, sababi u paytda ular yetarli urganilmagan edi.

Yangixind tillari uchun asosiy til kilib avtor sanskritni oladi. Bunda u veda tili va sanskritga doir barcha janrlarni nazarda tutadi. U shunga urgu berib yozadiki, Yangixind tillari braxmanlar adabiy til darajasiga chikargan sanskritga emas, sanskritning so'zlashuv formasiga borib takaladi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, sanskrit qachonlardir so'zlashuv tili bulganmi, bu xam isbotini topmagan.

Grammatika kuyidagi tartibda tuzilgan: eng avval sanskrit tili fonetikasi – unli va undoshlar ruyxati, ot va fe'llar buyicha turli uzak, negizlar, turli so'z turkumlarini tavsifini ochib beruvchi grammatik kategoriyalar keltirilgan. Shundan sung sanskritdan tortib urta xind tillari orkali to xozirgi zamon Yangixind tillari davrigacha bulgan til faktlari birma-bir yoritib berilgan.

Bu yerda sistemali yondashuv yuk, fakat til evolyusiyasi natijasi bulgan ayrim-ayrim faktlar tarixi berilgan. Albatta, usha davr umumiy lingvistik karashlariga bu tavsif uslubi mos kelgan.

«Kirish» qismida avtor shu areal mikyosida tillar shakllanishining sabablarini kursatgan. Morfologik tuzum sintetik shaklidan analitik shakliga utishini avtor atrofda kurshab turgan agglyutinatativ tuzumiga ega xind-oriy bulmagan tillar ta'siri deb xisoblamaydi, balki bu xolatni u ichki konuniyatlar tufayli deb tushuntiradi.

«Fonetika» bobida esa oriy bulmagan substrat turli xind-oriy tillariga ta'sir kursatmasligi mumkin emas, deydi. Shuni aytish lozimki, morfologik kurulish urtaxind tillari davrida Ayni fonetik uzgarishlar: oxirgi undoshlarning tushib kolishi, bir gurux undoshlarning uzgarib ketishi natijasida so'z strukturasining morfologik tuzumining anik-oydin emasligi kabilar tufayli uzgarishga uchragan edi.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, Bimz grammatikasida kuplab konkret kuzatishlar xulosalari mavjud. Birinchi bulib u so’zning fonetik va morfologik evolyusiyasida so’zning ritmik strukturasi axamiyatini tilga olgan. Uning fikricha, prakritlar va yangixind tillarida so’zning ritmi undosh unlini tanlashda xal kiluvchi rol uynagan. Bu, ayniksa, morfologiyadagi unlilar tip almashib kelishi xodisasi uchun xam juda axamiyatli.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.Azizov Tilshunoslikka kirish, T.,1995
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, T., 2002 yil
3. А.Березен, История лингвистических учений, М., 1989
4. Т.Я. Елизаренкова, Язык пали, М.,1967
5. О.С.Ахманова, Словарь лингвистических терминов, М.,1956

Internet saytlari:

- 1.www.hindibhasha.gov.in
- 2.www.bharatdarshan.co.uz
- 3.www.literateworld.com
- 4.www.ebazm.com
- 5.www.hindi,indya.com

Mustaqil ta’lim uchun savollar:

- 1.J.Bimz grammatikasi tartibini gapirib bering.
- 2.«Kirish» qismidagi til masalalari nimalardan iborat?
- 3.«Fonetika» bobbi haqida fikringizni bildiring.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun savollar:

1. Jon Bimz necha xil yangixind tilini taxlil kilgan?
2. Asos - til kilib qaysi til olingan?
3. J.Bimz grammatikasi kanday tartibda tuzilgan?
4. «Kirish» qismida nimalar yozilgan?
5. «Fonetika» qaysi masalalarga bagishlangan?

4 – Ma’ruza

Til tarixi va tilshunoslik bilimlari tarixining bog‘liq tomonlari. Hind tilshunosligi bilimlari tarixi fani va uning tushunchasi

Reja:

1. Xyornle yaratgan grammatika.
2. Grirson yaratgan grammatika.
3. Chatterji yaratgan grammatika.
4. Mazkur grammatikalarning uxshash va farkli jixatlari.

Tayanch iborlar:

Yangixind tillari, unlilar, undoshlar, sharhiy gurux, garbiy gurux, dialekt, praktik, shauraseni, dard tillari, tulkinsimon nazariya

Bimz grammatikasidan sung yana bir yangixind tillari grammatikasi buyicha Xyornle grammatikasi nashr etildi. Kitobda asosan sharhiy xindiy dialektlar guruxining grammatikasi yoritilgan. Bu dialektlarni tavsifi mobaynida ketma-ket yangixind tillari bilan kiyoslashishi utkazilgan.

Xyornle grammatikasi Xindiston lingvistik kartasidan boshlanadi. Bu bejiz emas. Sharhiy xindiy dialektlarini urgangach, avtor sharhiy va garbiy xindiy guruxi bir-birdan ancha fark kiladi, degan xulosaga keldi. Sharhiy guruxga xindiy, bangoliy, oriya; garbiy guruxga – garbiybxindiy, panjobiy, gujratiy, sindxiy kiradi. Maratxiy garbiydan kura sharhiy gurux bilan umumiy jixatlarga ega. Ammo uziga xos belgilari borki, shuning uchun u janubiy guruxga mansubdir.

Yukridagi guruxlarga kiruvchi xozirgi zamon tillari qachonlardir bir til dialektlari bulgan: magadxa sharhiy prakti va shauraseni garbiy prakti.

Anna shu ikki til urtasida Shimoliy Xindiston bulingan edi. Shu asosda Xyornle magadxiy migratsiya jarayonining bir okimi tili bulib, u Xindistonning shimoli-garbiy chekkalarigacha yetib borgan. Keyingi migratsiya okimi esa – uning tili shauraseni bulgan, magadxiy janubi-sharkka surib chikargan.

Keyinchalik Xyornlening bunday nazariyasiga kup olimlar shubxa bildirishdi. Fakat utgan asr 20-yillarida Xyornle klassifikatsiyasi J.A.Girson tomonidan kullab-kuvvatlandi va lingvistik jixatdan ishlab chikildi. Girson raxbarligi ostida 11 tomlik «Xindiston lingvistik obzori» kitobi yaratildi. Bunday yirik asar yangixind tillari va dialektlari, ularning tasnifiga bagishlangan. U chop etilishi bilan yangixind tillarini urganishda yangi boskich boshlandi. Ilgari ma'lum bulmagan unlab tillar va shevalar ochildi. Xindiston tillarining genealogik klassifikatsiyasi ishlab chikildi. Xind-oriy tillari tushunchasiga yanada oydinlik kiritildi.

Xind-oriy shaxobchasini Girson 3 oilaga buladi: 1) eron; 2) xind; 3) dard tillari. 3-oila – dard tillari oilasi fikr kilingan ikki oila urtasidagi urinni egallaydi. (territoriyasiga kura esa – Kashmir, Chegara rayonlarining shimoli-garbiy qismi, unga Pokiston va Afgoniston kiradi).

Yaratilgan yangilik shundan iboratki, uchinchi, ya'ni dard tillari oilasi xind tillari oilasidan ajratib, mustakil oila sifatida kursatilgan. Xozirgi zamon dard tillarini bir gurux olimlar, jumladan J.Blok, G.Morgenstverne, L. Terenerlar xind-oriy tillari orasida aloxida bir gurux kilib kursatadilar.

Girsonning Xyornlening tulkinsimon nazariyasini kullab-kuvvatlash uchun yangi argumentlar ishlab chikishga urinishlari S.K.Chatterji tomonidan kattik tankidga uchradi. U Grirsonga karshi ishonarli kontrargumentlar keltira oldi. Xind-oriy tillarining kiyosiy analizi tufayli Chatterji ular ikki kata qismga bulinadi, degan xulosaga keldi: garbiy gurux (xind-oriy arealning markaziy qismi va shimoli-garb tillari) va sharhiy gurux. Garb tillari Shark tillariga nisbatan kuprok konservativ.

Xozirgi kunda garbiy gurux tillari utimli fe'llar passiv konstruksiyada kullaniladi. Ayni paytda sharhiy gurux tillarida aktiv konstruksiya xam shakllanib bulgan.

Bunday taksimlash asnosida Chatterji geografik orientatsiyasiga muvofik ravishda bir kator guruxlarni ajratadi. Yangixind tillarini Chatterji kuyidagicha klassifikatsiya kiladi:

A. Garbiy gurux: 1.Shimoliy grupp (sindxiy, laxnda, sharhiy panjobiy); 2. Garbiy grupp (gujratiy, rajastoni); 3. Markaziy grupp (garbiy xindiy);

- B. Sharkiy gurux: 4. Sharkiy grupp (sharkiy xindiy, bixariy, oriya, bangoliy, assamiy);
5. Janubiy grupp (maratxiy).

Xozirgi davrda yangixind tillarining klassifikatsiyalash avvalo, yangi til faktlarining tuplanishi bilan boglik, xususan, Xindiston territoriyasida yangixind tillari kam urganilgan dialektlarning tavsifi, asosiy xind-oriy areal ajralib kolgan yangixind tillarining tavsifi, Seylonda singal tili, sigan tili dialektlarining tavsifi, I.M.Oranskiy tomonidan Tojikiston va Uzbekiston chegaralarida yangixind tillaridan paryaning kashf etilishi bulsa, ikkinchidan, yangixind tillarini tadkik etishda yangi usullarning joriy kilinishi, ayniksa, fonologiya va morfologiya soxasida tipologik usullar kullanila boshladi.

Genetik jixatdan karindosh tillarning fonologiyasini urganishda tipologik metodlardan foydalanish Chatterji tomonidan 1926 yilda boshlangan edi. Bu tillarning tadbxava leksikasining sintagmatik modeli uchun cuz boshida undosh fonemalarning birikmasligi xosdir. Bu jixat ularni xind-oriy tillaridan kelib chikkan yangixind tillarini eng avvalo dravid tillari bilan, undan sung Janubi-sharkiy Osiyo tillari bilan yakinlashtiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Azizov Tilshunoslikka kirish, T.,1995
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T., 2002 yil
3. А.Березен, История лингвистических учений, М., 1989
4. Т.Я. Елизаренкова, Язык пали, М.,1967
5. О.С.Ахманова, Словарь лингвистических терминов, М.,1956

Internet saytlari:

1. www.hindibhasha.gov.in
2. www.bharatdarshan.co.uz
3. www.literateworld.com
4. www.ebazm.com
5. www.hindi,indya.com

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. Xyornle yaratgan grammatikaning mohiyati nimadan iborat?
2. Grirson yaratgan grammatika haqida so'zlab bering.
3. Chatterji yaratgan grammatika qanday grammatika?
4. Mazkur grammatikalarning uxshash va farkli jixatlarini tushuntiring.

Amaliy topshiriqlar uchun savollar:

1. Xyornle yaratgan grammatika kanday til muammolarini yoritgan?
2. Grirson yaratgan grammatika kanday til muammolarini yoritgan?
3. Chatterji yaratgan grammatika kanday til muammolarini yoritgan?
4. Genetik jixatdan karindosh tillarning fonologiyasi qachondan boshlab urganila boshlandi?

Panini asarining hind tilshunosligida tutgan o‘rni va asarning hususiyatlari. Panini “Ashtadyaya”si va hind tilshunos olimlarining yaratgan asarlari

Reja:

1. Zograf yaratgan metodika mohiyati xususida.
2. Yangixind tillarining morfologik strukturasi tavsifi.
3. Yangixind tillarining strukturaviy – tipologik klassifikatsiyasi.

Tayanch iboralar:

Yangixind tillari, flektiv, agglyutinatív, analitik tizim, grammatik kategoriya, til strukturasi, affiks, yarimanalitik birikmalar, til yaruslari

Strukturaviy-tipologik kiyoslash metodikasini yangixind tillari materiali asosida morfologik jixatdan ishlab chikkan A. G. Zograf buladi. Avtorning uzi bu uslubning ahamiyatini ochik-oydin kursatib bergan. Kiyosiy – tarixiy metod bir tizimdagi til elementlari rivojining konuniyatlarini ochib bersa, strukturaviy – tipologik metod esa shu tizimdagi munosabatlar rivojining konuniyatlarini kursatib bera oladi, ya’ni til strukturasi evolyusiyasini yoritadi. Sinxroniyani diaxroniyadan ayri kullamagan xolda diaxroniya bilan boglik faktlar sinxron tavsiflash uchun yoki aksincha, sinxroniyaga oid ma’lumotlar diaxronik jarayonlarning interpretatsiyani aniklash uchun xizmat kilishi mumkin.

Yangixind tillarining morfologik strukturasi tildagi grammatik kategoriyalarning sistemasi sifatida berilgan. Ularning kiyoslanishi bir kator ketma-ketlikdagi satxlar orkali yuzaga chikadi: ba’zi tillarga mansub grammatik kategoriyalar inventarining takkoslanishi; ulardagi formal ifodasi usullarining analizi (flektiv, agglyutinatív, analitik), shuningdek, ularning mikdoriy tavsifi; yangixind tillarida so’z shakllari ularni yasovchi affikslarning flektiv yoki agglyutinatív deb belgilanishi yoki belgilanmasligi jixatidan birlamchi va ikkilamchi turga bulinadi.

Agglyutinatív so’z shakllariga funksiyasi jixatidan eski flektiv formalarning yangi kumakchi so’zlar bilan xosil kilgan yarimanalitik birikmalari kiradi.

Analitik formalar uz navbatida uz tarkibiga kura birlamchi va ikkilamchi bulishi mumkin. – Ikkilamchi deb shaklning kumakchi qismi birdan ortik elementdan iborat bulsa, (masalan, otning murakkab poslelog bilan kelishi, murakkab verbal fe’llarning turlari) ikkilamchi deb atash mumkin. Bu kabi turli affikslar va kumakchi elementlar yangixind tillaridagi ot va fe’llarning turlanishi va tuslanishdagi cuz uzgarishlari tizimining bir necha yarusini tashkil etadi. Yangixind tillarining rivojidagi umumiy yunalishi flektiv tizimdan analitik (tugrirogi, yarimanalitik)dan agglyutinatív tizimga karab beradi.

Mana shu xarakteristika asosida yangixind tillarning strukturaviy-tipologik klassifikatsiyasi taklif kilindi. U asosiy uch guruxni uz ichiga oladi:

- 1) Shimoliy xind (Xindistonning barcha yangixind tillari, Pokiston, Bangladesh, Nepal tillari, Tojikiston xududidagi parya shevasi)
- 2) Seylon guruxi (singal tili)
- 3) Sigan tili shevalari guruxi. Uz navbatida shimoliy xind tillari guruxi 3 ta guruxgacha bulinadi:
 1. Garbiy (sindxí, maratxiy)
 2. Markaziy (xindi, uning garbiy shevalari, rajastxaniy va paxariy dialektlari)

4) **Sharkiy (bangoliy, oriya, assamiy)**

Garbiy va Markaziy guruxlar uzaro uzviy boglanib ketadi, ular orasidagi farqlar sezilar-sezilmas. Misol uchun: panjobiy va gujratiy struktura jixatidan xindiyga yaqin, uzidagi ba'zi xususiyatlarga kura boshka yangixind tillari bilan uxshash tomoni bor: panjobiy shu arealning shimoliy tillari bilan, gujratiy esa janubiy tillari bilan bir xil jixatlarga ega.

Garbiy va Sharkiy guruxlar kuyidagi asosiy jixatlarga ega:

Avvalo, a) morfologik belgilar flektiv va analitik kursatkichlar orkali kurinadi.

b) agglyutativ formalarning ustunligi.

v) ot jins kategoriyasiga ega.

g) sifatlar uzgarmas va uzgaruvchan buladi.

d) fe'llarga utimlilik kategroryasi xos.

Shunday kilib, yangixind tillariga kiyosiy-tipologik metodni fonologik va morfologik darajada tatbik kilish kuyidagi xulosalarga olib keladi:

Xindiston xind-oriy tillaridan kelib chikkan yangixind tillar orasida bir-biriga zid ikki gurux bor:

Sharkiy va nosharkiy. Uni shartli ravishda garbiy deb atash mumkin.

Sharkiy guruxlarga bangoliy, oriya, assamiy (fakat maratxi kirmaydi), garbiy guruxga esa – kolgan barcha tillar kiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Azizov Tilshunoslikka kirish, T.,1995

2.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T., 2002 yil

3.А.Березен, История лингвистических учений, М., 1989

4Т.Я. Елизаренкова, Язык пали, М.,1967

5.О.С.Ахманова, Словарь лингвистических терминов, М.,1956

Internet saytlari:

1.www.hindibhasha.gov.in

2.www.bharatdarshan.co.uz

3.www.literateworld.com

4.www.ebazm.com

5.www.hindi,indya.com

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1.Zograf yaratgan metodika moxiyati xususida so'zlang.

2. Yangixind tillarining morfologik strukturasi tavsifi nimadan iborat?
3. Yangixind tillarining strukturaviy – tipologik klassifikatsiyasini izohlang.

Amaliy mashg'ulotlar uchun savollar:

1. Strukturaviy – tipologik kiyoslash metodikasi nimani anglatadi?
2. Zograf uz grammatikasida kuprok nimalarga urgu bergan?
3. Strukturaviy – tipologik klassifikatsiyani yod oling.

6 – Ma'ruza

Til tarixi va tilshunoslik bilimlari tarixining bog'liq tomonlari. Hind tilshunosligi bilimlari tarixi fani va uning tushunchasi

Reja:

1. J.Blok grammatikasining ba'zi xususiyatlari haqida.
2. Grammatikaning «Kirish» qismida yoritilgan masalalar.
3. «Morfologiya» qismida kutarilgan masalalar.
4. «Fonetika» va «sintaksis» boblarida yoritilgan masalalar.
- 5.

Tayanch iboralar:

Xind-oriy tillari, dard tillari, dravid tillari, Kofiriston tillari, yangixind tillari, mintakaviy lingvistika

Xozirgi kunda xam uz axamiyatini yukotmagan, xind-oriy tillarining kiyosiy – tarixiy grammatikasi bilan boglik asarlardan biri Jyul Blokning 1934 yil nashr kilingan «Vedalardan to bizning davrgacha xind-oriy tillari» xisoblanadi. Uni xind-oriy tillarining tarakkiyot tarixi, kiyosiy va xatto tipologik jixatlarini yoritgan uziga xos ensiklopediya deyish mumkin. Avtorning uzi bu asarni yangixind tillarining kiyosiy grammatikasi deb xisoblamagan. Balki avtorning maksadi fakat ularning tarixiy tavsifini berishdan iborat bulgan.

Avtor xind-oriy tillariga xozirgi dard tillarini xam kiritadi. Blokning fikricha, kashmiri albatta bu guruxga kiradi. Kofiriston tillarini esa biroz shubxa bilan kiritgan.

Blokning kitobi Grirsonning «Xindiston lingvistik obzori» kitobi Chop etilgandan keyin yaratildi. Blok yaratgan asarning inglizcha nashri chikkuncha esa kuplab yangixind tillari, ularning shevalari sinxron, xatto tarixiy jixatdan yoritilib bulingan edi. Demokchimizki, J.Blok uzidan avval yaratilgan grammatikalarning mualliflariga nisbatan kuprok materialni urganib chikkan edi.

Nafakat xind-oriy tillari, balki dravid tillari soxasidagi mutaxassis xisoblangan Blok xind-oriy tillari tarakkiyoti tarixini tillararo alokalar bilan boglik xolda kurib chikib, bir oilaga mansub tillarning kiyosiy-tarixiy grammatikaga doir masalalar butun areal lingvistikasi doirasiga xam kiritdi.

«Kirish» qismida xind-oriy tillari rivojining tarixi boskichlarga bulinib, taxlil kilingan Kichik – Osiyoning kadimgi tillaridagi oriy so'zlarini J.Blok xind shaxobchasiga mansub, deb xisoblaydi. Sanskrit esa yasama adabiy til deb karalgan. Uning tarixi muayyan til emas, uslublar tarixi deb talkin kilingan. Urtaxind tillari davri lingvistga geografik orientatsiya bobida juda kam ma'lumot beradi.

Yangixind tillarining shakllanish vakti anik aytilmagan. Shartli ravishda bu jarayon 10 asrdan keyin boshlanadi. Xozirgi zamon yangixind tillariga mos bulgan bir ajib narsa shuki, ularning kata territoriyada uzluksiz tarkalib borishi va buning natijasida anik lingvistik xadlarning mavjud emasligidir.

Kitobning asosiy qismi uch bobdan iborat:

Fonetika, morfologiya va sintaksis bulimlari. Sintaksis bulimining juda muxtasar ekanligi ba'zi tillarning tavsifiy grammatikasi xam ishlab chikilmaganligi bilan izoxlanadi.

Berilgan material juda yaxshi taksimlangan. Asos kilib kadimxind tili tizimi kabul kilib olingan. Keyin bu sistemaning vakt mobaynidagi, ya'ni urtaxind, undan yangixind davrlaridagi transformatsiyasi kurib chikilgan.

Kadimxind tillarining fonetika va morfologiyasi kadimgi xind-evropa tillari, avvalo veda tiliga yakin bulgan Avesta sistemasi bilan kiyoslanib berilgan. Keyingi evolyusiya umumiy xind-evropa modelidan asta-asta chekinib, yangi xindcha modellarning shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Unli va undoshlar bir-biridan ayri xolda kurilgan. Blokning ta'kidlashicha, kadimxind fonetikasidagi asosiy uzgarishlar unli va undoshlarning uzaro kushilishi koidalarining uzgarishi tufayli yuz bergan. Kadimxind tillarida unlilar undoshlardan mustakil bulgan bulsa, va muxim sifatiiy va mikdoriy xarakteristikaga ega bulgan bulsa, urtaxind davridan boshlab, axvol keskin uzgaradi. Bugin so'zning belgilovchi birligiga aylanib boradi.

Urtaxind tillarida yuz bergan fonetik uzgarishlar tufayli ot va fe'l negizlarida kuchli reduksiya ruy berdi. Fleksiya xodisasi kuchsizlanib bordi. Blokning kitobida bu jarayonlar ayrim grammatik kategoriyalar – jins, son, ot, sifat, olmoshlarning kelishiklari uzgarish tarixi sifatida tavsiflangan.

Xind-oriiy tillarining kadimgi flektiv tizimdan analitik, ba'zi tillarda esa keyinchalik agglyutinatiiy tizimga karab rivojlanib borishini Blok ayniksa, fe'l orkali yorkin kursatib bergan. Yangixind tillari fe'li shunday spesifik xususiyatga egaki, tugallanmagan sifatdoshning bosh kelishik shakli fe'lning anik formasiga ekvivalent bulib koldi.

Asta-sekin yangixind tillarida tus-zamon, modal formalarning murakkab sisitemasi shakllanib bordi.

Sintaksis bobiga kelsak, Blok yangixind tillaridagi gap strukturasini xarakterlovchi bir kator tendensiyalarni ajratib kursatgan: boglovchi fe'lning kullanilishi; So'z tartibining uzgarmas xolga kelishi va xokazolar;

Blokning asari xind-oriiy tillarining kiyosiiy-tarixiiy grammatikasiga kuyildigan barcha talablarga javob beradigan yagona ilmiy ishdir.

Adabiiyotlar ro'yxati:

1. O.Azizov Tilshunoslikka kirish, T.,1995
- 2.O'zbekiston milliiy ensiklopediiyasi, T., 2002 yil
- 3.A.Berezen, Istoriya lingvisticheskix ucheniy, M., 1989
- 4T.Ya. Yelizarenkova, Yazqk rali, M.,1967
- 5.O.S.Axmanova, Slovar lingvisticheskix terminov, M.,1956

Internet saytlari:

1. www.hindibhasha.gov.in
2. www.bharatdarshan.co.uz
3. www.literateworld.com
4. www.ebazm.com
5. www.hindi,indya.com

Mustaqil ta'lim uchun savollar:

1. J.Blok grammatikasining ba'zi xususiyatlari haqida gapirib bering.
2. Grammatikaning «Kirish» qismida yoritilgan masalalar nimalardan iborat,
3. «Morfologiya» qismida kutarilgan masalalarni tushuntiring.
4. «Fonetika» va «sintaksis» boblarida yoritilgan masalalarni tushuntiring.

Amaliy mashg'ulot uchun savollar:

1. J.Blok grammatikasi qaysi tillarning grammatikasiga bag'ishlangan?
2. Asarning «Kirish» qismida nimalar yoritilgan?
3. «Fonetika» qismida qaysi masalalar kutarilgan?
4. «Morfologiya» va «sintaksis» boblarini taxlil kiling.

7 – Ma'ruza

O'rta hind-oriy tillari ning birinchi va ikkinchi bosqichlari va ularning xususiyatlari

Reja:

1. «Sinxdiy tili grammatikasi» haqida.
2. «Maratxiy tili tarixi» grammatikasi haqida.
3. Chatterji yaratgan ilmiy asarning fandagi ahamiyati.

Tayanch iboralar:

Yangixind tillari, fonetik xususiyatlar, morfologik xususiyatlar, maratxiy, telugu, kannadi, bangoliy, etimologiya, mintakaviy lingvistika

Yangixind tillarining kiyosiy-tarixiy grammatikasiga aslida ba'zi tillarning tarixiy grammatikasi manba' bulgan.

Xind-oriy tillariga bagishlangan bunday grammatikani tuzish an'anasi 19 –asrning oxirlaridan boshlandi. Boshlangich kadam Ye.Trumpp tomonidan kuyildi. U «Sinxdiy tili grammatikasi»ni yaratdi. Muallif tildagi bir kator fonetik va morfologik jixatlarni tarixiy rivojlanishini kurib chikkan. Bu grammatikadan keyin S.Kelloggning xindiy tili grammatikasi yozildi. Kellog grammatikasida adabiy xindiy tilining sinxron tavsifi garbiy va sharkey gurux dialektlari, shuningdek, rajastxaniy va nepaliy bilan kiyoslash orkali berilgan.

Yangixind tillaridan bulgan maratxiy tilining tarixiga bagishlangan «Maratxiy tili tarixi» kitobi J.Blok tomonidan yozilgan va 1920 yilda nashrdan chikkan. U kadimiy maratxiyda bitilgan manbalar saosida yozilgan bulib, grammatikaning barcha bulimlari ketma-ket kurib chikilgan. Maratxiyning apabxranshdan tortib xozirgi xolatigacha yetib kelishi asosli yoritib

berilgan. Maratxiyga kushni bulgan dravid tillaridan telugu va konnedi tillarining kursatgan ta'siri xam nazarda tutilgan. «Maratxiy tarixi» asari boshka yangixind tillarining tarixi uchun eng yaxshi namuna bulib xizmat kildi.

Ana shunday asarlardan biri bangoliy tili tarixi bulib, u J.Blokning shogirdi – S.K.Chatterji tomonidan yozilgan «Bangoliy tilining kelib chikishi va rivoji» kitobi xisoblanadi. Blok maratxiy tilining «botiniy» tarixini yaratishni maksad kilib kuygan bulsa, Chatterjiy bangoliy tili tarixini kiyosiy-tarixiy uslub Bilan yoritishni kuzladi. Bu esa avtorni juda kup masalalar, ayniksa, bunday ishga daxldor bulmagan muammolarni xam kurib chikishga majburlagan. Natijada bangoliy tili doimo ikki planda kurib boriladi: 1) tarixiy rivojlanishda va 2) boshka yangixind tillari bilan kiyosiy taxlil asosida. Bunday chukur va keng kamrovli taxlil natijasida S.K.Chatterji kitobi tengsiz deb baxolandi.

Sintaksis masalalari aloxida kurilmasada, ammo bir necha morfologiya masalalariga boglik ravishda izox berib utilgan.

Kitobning 1-bobi yangixind tillarining kiyosiy fonetikasiga bagishlangan, ayniksa, Chatterji 30-yillarda tadkik etgan yangixind tillarida aspiratsiyadagi oppozisiya muammosi keng kurib chikilgan.

Chatterjiy kitobidan keyin torrok maksadlarni kuygan Kakati, Jxa, Tivari, Katrealar kalamiga mansub bir necha asarlar yaratildi.

Yangixind tillarini kiyosiy-tarixiy planda urganishda yana bir muxim aspekt – bu shu tillarning kiyosiy va etimologik lugatlarini yaratishdir. Bu faoliyat R.L.Tyorner nomi bilan boglik. 1931 yilda «Nepal tili kiyosiy va etimologik lugati» tuzildi.

Tyorner deyarli yarim asr mobaynida uz kuchini «Xind – oriy tillarining kiyosiy lugati»ni yaratishga sarfladi. U 1960 yilda nashrdan chikdi. Bu asar kishini kamrovi bilan xayratga soladi. So'zlik tarixiy tamoyil asosida yaratilgan: uz ichiga yangixind tillarida uz aksini topgan barcha kadimxind so'zlarini oladi. Kadimxind va urtaxind tillari boskich i istalgan davr, istalgan jugrofiy va janr orientatsiyasiga xos tekstlar, xususan, veda (mantra va nasr), sanskrit, epos, pali, prakrit, Ashoka davri yozuvlari, Markaziy Osiyo xududida topilgan budda yozuvlari xam kiritilgan.

Yangixind boskich i xam xayratlanarli darajada til va shevalarning turfa xilligi bilan ajralib turadi. Dard tillar yangixind tillari deb karalib, mazkur lugatda keng iste'mol kilingan. Extiyojga karab boshka xind-oriy tillari, xususan sharkiy areal: eron, toxar, armani tillaridan xam parallellar jalb kilingan.

Tyorner lugatida yangixind tillari etimologiyasi asoslari berilgan. Bundan tashkari u ba'zi yangixind tillari orasida fonetik mukobilliklar konuniyatlarini ishlab chikish uchun boy material manbaidir.

Shu yerda D.P.Pattayanakning yangixind boskichining sharkiy guruxi tillarining kiyosiy-tarixiy fonetikasini tadkik etishga bagishlangan kitobida 4 ta til taxlil kilingan. Ulardan 3tasi sharkiy guruxga mansub: bular – oriya, assamiy, bangoliy, 4-si – xindiy. U garbiy guruxga tegishli. Avtorning vazifasi sharkiy gurux tillariaro mutanosiblikni urnatishdan iborat edi.

Xulosa sifatida shularni aytish mumkin: tadkikotning kiyosiy tarixiy metodi mintakaviy lingvistika metodlari bilan uygunlashib ketadi. Kadimxind (veda va sanskrit) tillari kadimyunon, lotin va boshka tillar bilan birgalikda tilshunoslikda kiyosiy-tarixiy metodning shakllanib, charxlanib borishiga xizmat kilgan bulsa, yangixind tillarini urganishda bu metod kup samara bermas ekan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Azizov Tilshunoslikka kirish, T.,1995
- 2.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, T., 2002 yil
- 3.A.Berezen, Istoriya lingvisticheskix ucheniy, M., 1989
- 4T.Ya. Yelizarenkova, Yazqk rali, M.,1967
- 5.O.S.Axmanova, Slovar lingvisticheskix terminov, M.,1956

Internet saytlari:

- 1.www.hindibhasha.gov.in
- 2.www.bharatdarshan.co.uz
- 3.www.literateworld.com
- 4.www.ebazm.com
- 5.www.hindi,indya.com

Mustaqil ta’lim uchun savollar:

- 1.«Sinxiy tili grammatikasi» haqida gapirib bering.
- 2.«Maratxiy tili tarixi» grammatikasi haqida fikringizni ayting.
- 3.Chatterjiy yaratgan ilmiy asarning fandagi ahamiyatini iborat.

Amaliy mashg‘ulot uchun savol va topshiriqlar:

- 1.E. Trumpp yaratgan grammatika qaysi masalalarga bagishlangan?
- 2.«Maratxiy tili tarixi»da grammatikaning qaysi bulimlari kamrab olingan?
- 3.Chatterjiy asarining ahamiyatini aytib bering.